



VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA SUITSID HOLATLARNING OLDINI OLISH

Davletova Muborak Ro'zimboyevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani

Bo'ston shahri 22-maktabi psixologi

Anotatsiya: Maqolada hozirgi kunda dolzarb bo'layotgan yoshlar o'rtasidagi suitsid, ya'ni inson o'z joniga qasd qilish muammosi ko'tarilgan. Mualliflar maqolada ko'tarilgan muammoni turli metodlar yordamida yechimini keltirib o'tgan.

Kalit so'zlar: suitsid, globallashuv, deviant, parasuitsidal, tarbiya, jamoat uyushmalari, ma'naviyat, shaxs, xulqi og'ishgan, jamiyat, alkogolizm, norkomaniya, ijtimoiy muhit.

O'z joniga bilib turib qasd qilishga suitsid deb aytiladi. Suitsid barcha davlatlarda global ijtimoiy-psixologik muammoga aylangan. Ayniqsa, uning bolalar va o'smirlar orasida ko'p uchrayotgani jamoatchilikni qattiq xavotirga solmoqda. O'z joniga qasd qilishga uringan, biroq tirik qolganlarga nisbatan "suitsidga urinish" iborasi qo'llaniladi. Suitsidga urinish suitsidga qaraganda 20 barobar ko'p uchraydi. Bolalik davrida suitsid juda kam uchraydi. Suitsidologlar fikricha, o'z joniga qasd qilish 10 yoshdan keyin boshlanadi. Bu davr avval yuqori bo'lgan, ya'ni 14-15 yosh. Suitsidning "yosharishi" avvalambor axborot texnologiyasi juda yuqori sur'atlarda rivojlanishi, inson hayotiga internet kirib kelishi bilan bog'liq. Ayniqsa, suitsidga undovchi turli xil saytlar ko'payib borayotgani va ota-onalar o'z farzandlarini nazoratsiz qoldirishi 10 yoshgacha bo'lgan bolalar orasida ham suitsidlar soni ko'payishiga turtki bo'lmoqda. Hatto bir



paytning o'zida guruh-guruh bo'lib o'z joniga qasd qilish holatlari ham uchramoqda. Bolalar orasida ro'y beradigan bunday holatlar anglanmagan suitsid hisoblanadi. Inson hayotida suitsid ko'p uchraydigan davrlarni shartli ravishda 3 ga bo'lish mumkin:

Birinchi davrda "Men" ongi shakllanishi bilan bog'liq muammolar suitsidga asosiy sabab bo'lsa, ikkinchi davrda ish bilan bog'liq muvaffaqiyatsizlik va oilaviy mojarolar, uchinchi davrda esa yolg'izlik va kasallik bilan bog'liq tashvishlar asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. Suitsid o'rta yoshga qaraganda o'smirlik va keksalik davrlarida ko'p uchraydi. O'smirlik davrida, ya'ni 14-19 yosh oralig'ida suitsid sodir etish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunda "Men" ongi shakllanishi bilan bog'liq krizis holatlarni alohida ko'rsatib o'tish lozim. Xulq-atvordagi tajovuzkorlik, hissiy portlashlar, ota-ona bilan kelishmaslik va sevgi-muhabbatda muvaffaqiyatsizliklar suitsidga turtki bo'luvchi asosiy omillardir. Bularning negizida, albatta, neyrohumoral holatlar, disgormonal o'zgarishlar va erta namoyon bo'luvchi psixopatizatsiya yotadi. Bu davrda giyohvandlikka ruju qo'yishni ham alohida ko'rsatib o'tish lozim. O'smirlik davrida fanatizmning har qanday ko'rinishi ham suitsidga undovchi xatarli omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, futbol jamoasining yutqazib qo'yishi ba'zan fanat o'smirning suitsid sodir etishiga sabab bo'ladi. Keksa yoshdagilarda turmush o'rtog'i vafot etib yolg'izlanib qolishi, farzandlar e'tiborsizligi, ya'ni qarovsiz qolish yoki farzandlariga yuk bo'lishni o'zi xohlamasligi va og'ir kasalliklar (dementsiya, depressiya, apatiya, ateroskleroz, saraton, yurak kasalliklari) suitsidga turtki bo'ladi.

Suitsid ayollarga qaraganda erkaklarda deyarli 3 barobar ko'p uchraydi. Bu davr ko'pincha o'rta yoshga to'g'ri keladi. Ishsizlik, oilani boqish va farzandlar tarbiyasidagi iqtisodiy qiyinchiliklar, kredit uzish bilan bog'liq muammolar, chorasizlik, umidsizlik sababli ertangi kunga ishonch yo'qoladi va suitsidga



undaydi. Aksariyat davlatlarda erkak kishi asosiy oila boquvchisi bo'lganligi bois, suitsidlar soni ushbu jins vakillarida ko'p. O'smirlik davrida bu statistika teskari tarzda o'zgaradi, ya'ni qizlarda suitsid o'g'il bolalarga qaraganda 3 barobar ko'p uchraydi. Biroq keksalik davriga kelib, suitsidlar soni bo'yicha erkaklar yana oldinga chiqib oladi. Suitsidga urinishlar. Dunyo bo'yicha 20 mln odam o'z joniga qasd qilishga urinadi. Suitsidga urinish ayollarda erkaklarga qaraganda 3-4 barobar ko'p kuzatiladi. Demak, erkaklar suitsidni ayollarga qaraganda tezroq amalga oshirishadi. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, o'z joniga qasd qilishga urinib, tirik qolgan holatlarda "suitsidga urinish" xulosasi qo'llaniladi. Bu rasmiy xulosa bo'lib, bunday shaxslar zudlik bilan suitsidolog kuzatuviga olinadi. Ularga maxsus dastur asosida psixiatrik, tibbiy-psixologik va sotsiologik rehabilitatsiya o'tkaziladi. Odatda, suitsidga urinish dastlabki 3 oy ichida yana takrorlanadi va falokatli tugash xavfi juda yuqori. Chunki suitsidga keyingi urinishlar, birinchi urinishga qaraganda ko'pincha o'lim bilan yakun topadi. Biroq suitsidga hadeb urinaverish negizida o'z maqsadiga erishish niyati yotishi mumkin, masalan isteriyada. Ularda suitsid simulyatsiya ko'rinishida namoyon bo'ladi. Agar isterik shaxs o'z maqsadiga erishsa, suitsidga urinishlar barham topadi. Biroq suitsidal urinishlar isteriya tufayli ro'y beryaptimi yoki haqiqatdanmi, uni to'g'ri aniqlash imkoni ancha mushkul. Chunki isteriya ham, suitsid ham o'smirlarda ko'p uchraydi. Shunday ekan, o'smirni tekshirayotgan tibbiy psixolog yoki boshqa bir mutaxassis ehtiyotkorlikni unutmasligi kerak. Shu erda suitsidga urinishlar barham topadigan ba'zi holatlarni misol tariqasida keltirib o'tamiz. Bular – qamoqxonadan ozodlikka chiqish, qarzdan qutulish, oila barbod bo'lishini saqlab qolish, uzoq davom etayotgan og'ir kasallikdan sog'ayib ketish, unga azob beruvchi odamning vafot etishi, sevgisiga erishish va h.k. Suitsidning naslga bog'liqligi. Suitsid naslga bog'liq emas, deb hisoblaydi ko'pchilik mutaxassislar. Biroq yaqin oila a'zolarida suitsidning birmuncha ko'proq uchrashi, bu holatga nasliy moyillikni inkor qilmaydi, deguvchi gipotezalar ham mavjud. Shu bilan birga yaqin qarindoshlarda suitsidning ketma-



ket ro'y berishi taqlid ko'rinishida namoyon bo'layotgan falokatli holat deb ham qaraladi. Har holda suitsid bilan nasl orasidagi bog'liqlikni yanada mukammal o'rganish lozim. Suitsidning ta'lim darajasi va kasbga bog'liqligi. Oliy va o'rta ma'lumotga, shuningdek, kasbiy ta'limga ega bo'lmagan shaxslar orasida suitsid ko'p kuzatiladi. Ta'lim va kasbiy malaka qanchalik yuqori bo'lsa, suitsid darajasi shunchalik past bo'ladi, degan qarashlar ko'p. Kuchli iqtisodiy o'sish kuzatilib, turmush darajasi oshib borayotgan davlatlarda suitsid ko'p uchraydi. Din o'z joniga qasd qilishni qoralaydi. Ayniqsa, har qanday davlat aholisining islom diniga qat'iyon e'tiqod qiluvchi qatlamida o'z joniga qasd qilish deyarli kuzatilmaydi. Islom dini o'z joniga qasd qilganlarga hatto janoza o'qishni taqiqlaydi. Shu bois ham islom diniga e'tiqod qiluvchi davlatlarda suitsid darajasi juda past. Demokratik jamiyat va ijtimoiy adolat qonunlariga amal qilinadigan, inson huquqlari e'tirof etiladigan, inson manfaati ustun bo'lgan va qonun ustuvorligi ta'minlangan davlat va jamiyatda o'z joniga qasd qilishlar o'ta past bo'ladi. Suitsidning mavsumiyligi. Statistik tahlillarga ko'ra, suitsid bahor va yoz oylarida ko'p, qishda esa kam kuzatiladi. Suitsidga moyil shaxslarning o'zaro muloqoti. Suitsidga moyil shaxslar bir-biri bilan o'zaro muloqotda bo'lishsa, suitsidga urinishlar soni oshadi. Bu holat ayniqsa yoshlar orasida ko'p. Nikoh to'yi o'tkazilganiga ko'p bo'lmasdan o'z joniga birgalikda qasd qilgan kelin-kuyov haqida ma'lumotimiz bor. Ular o'zlarini osishgan. Yigitning onasi bilan suhbatlashganimizda ularda o'zlarini osishga hech qanday vaj bo'lmaganini aytdi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, qiz ham, yigit ham avvallari o'z joniga qasd qilishga urinib ko'rishgan ekan. Suitsidni amalga oshirish uchun qo'llaniladigan vositalar. O'z joniga qasd qiladiganlar ko'pincha ko'p miqdorda dori ichish, o'zini osish, venasini kesish, transportlar tagiga o'zini otish, qurol-yaroqlardan foydalanish (ayniqsa, politsiyachi va harbiylar orasida), baland binodan sakrash, zaharli vositalardan foydalanish kabi usullardan foydalanishadi. Qanday vosita yoki usulni tanlash, albatta, yashab turgan muhitga ham ko'p jihatdan bog'liq. Yirik shaharlarda baland binodan sakrash ko'p uchrasa,



qishloq hududlarida o'zini osish, dori yoki zaharli vositalardan foydalanish ko'p uchraydi. Masalan, bir paytlar Hindistonning yirik plantatsiyasi ishchilari o'z joniga qasd qilishda pestitsidlardan ko'p foydalanishgan. Bunday holatlar ko'payib ketganligi bois, hukumat tomonidan maxsus qaror qabul qilinib, qishloq xo'jaligi sohasida zaharli pestitsidlarni qo'llashga cheklovlar qo'yilgan, maxsus himoya mexanizmlari ishlab chiqilgan va nazorat kuchaytirilgan. Bu yaxshi natija berib, ushbu soha xodimlari orasida suitsidlar soni keskin kamaygan. Suitsidning oiladagi muhitga bog'liqligi. O'smirlar orasida suitsid ko'p uchrashi aksariyat hollarda oilada isterik tipdagi shaxs voyaga etayotgani bilan bog'liq. Nima uchun to'q oila farzandlari suitsidga ko'proq qo'l urishadi? Uning negizida qanday omillar yotadi? Bolalik davridanoq farzandni mehrga burkab o'stirish yaxshi. Biroq uni parallel tarzda mehnat va mas'uliyatga o'rgatib bormaslik oqibatida bola ulg'aygan sayin ota-onadan mehri yana va yana istayveradi. Biroq 3-5 yoshligidan mehnatga o'rgatilmagan bola 12-15 yoshdan so'ng uning uchun yot bo'lgan faoliyat turiga, ya'ni mehnatga qo'l urgisi kelmay qoladi. Buning oqibatida, tabiiyki, ota-ona bilan farzand o'rtasida nizo paydo bo'ladi. Mehnat nimaligini bilmay ulg'aygan bola, unga mehr nimaga berilayotganini ham anglab etmaydi. U farzandlik burchini unutib qo'yadi. Bunday bola ota-onaga xuddi shu tarzda javob qaytara olmaydi. Farzandning ong ostiga ota-onaga nisbatan "Faqat ular menga e'tibor qaratishi kerak, men emas" degan aqida o'tirib qoladi. Natijada ota-ona o'zi bilmagan va xohlamagan holda isterik va egoist shaxsni tarbiyalab qo'yadi. Isteriya esa suitsidning asosiy sabablaridan biri. Demak, bolaga ortiqcha mehr va uni mehnatga o'rgatmaslik oxir-oqibat suyukli farzandidan judo bo'lish bilan tugallanishi mumkin. Ta'lim va tarbiya birgalikda olib borilishi har doim ta'kidlanadi. Biroq bu erga mehnatni ham qo'shish kerak. "Ta'lim, tarbiya va mehnat" uchligi bolaning to'g'ri kamol topishida eng kuchli shior bo'lib qolmog'i kerak. Kitob bolani ilmi qilsa, mehnat uni tarbiyalaydi, ota-onaga oqibatli qiladi va uni hayot mashaqqatlariga tayyorlaydi. Tabiiyki, bunday o'smirning xayoliga o'z joniga qasd



qilish kelmaydi, aksincha, u hayotdan zavqlanib yashaydi. Suitsidga qarshi omillar. Homiladorlik suitsidga qarshi eng kuchli omildir. Emizikli ayollarda ham suitsid deyarli uchramaydi. Shuningdek, dinga kuchli e'tiqod qilish ham suitsidni yo'qqa chiqaradi. Bu toifaga olimlar, ixtirochilar, yirik loyiha ustida ishlayotgan mutaxassislar va katta ijodiy rejalar bilan yashayotgan kasb egalari ham kiradi. Xavotirli-fobik sindromning o'limdan qo'rqish bilan kechuvchi turi ham o'z joniga qasd qilishdan saqlovchi omildir. Iqtisodiy tomondan yaxshi ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga ega mustahkam oilalarda ham suitsid uchramaydi. Agar har bir ota-ona farzandlariga kuniga bir soat vaqt ajratib, ularni tinglasa va muammolariga sherik bo'lib, echimini topishga ko'maklashsa, o'smirlar orasida suitsid darajasi keskin pasayadi yoki kuzatilmaydi. Albatta, buning uchun bola ishonchini qozonsh kerak. Aks holda ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi. Shuningdek, qadimiy qo'l mehnati vakillari, ya'ni duradgorlar, o'ymakor ustalar va kosiblar orasida ham suitsid kam uchraydi. Chunki ular ilk bolalikdan mehnatga va hayot mashaqqatlariga o'rganib borishadi. Bunday kasb egalarining ustaxonalari ko'pincha o'z uyida bo'ladi va tabiiyki ularning farzandlari ham 3-5 yoshligidan og'ir mehnatni o'z ko'zi bilan ko'rib boradi va o'zi ham ishtirok etadi. Og'ir bolalik davrini boshidan kechirib, hayotda o'z o'rnini topganlarda ham suitsid kam kuzatiladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi davrida front ortida og'ir sharoitlarda yashagan va mehnat qilganlar orasida suitsid juda kam bo'lgan yoki uchramagan. Suitsid turlari. Suitsidning yashirish va tantanavor turlari farqlanadi. Hech kimga bildirmay o'z joniga qasd qilishga yashirin suitsid deb aytiladi. Bunday shaxs niyatini qattiq sir tutadi. Kerak bo'lsa, o'sha kuni oila a'zolari bilan "dildan" suhbatlashib o'tiradi, teatr va kinolarga borib keladi, do'stining tug'ilgan kuniga sovg'a-salom bilan tashrif buyuradi yoki kursdoshining nikoh to'yida ishtirok etadi, hatto raqsga tushadi va uyga qaytgach, hammani arosatda qoldirib, shu kechasiyoq qabih niyatini amalga oshiradi.



Voyaga yetmagan o'smirlarning shaxs sifatida shakllanish jarayoni muammoli vaziyatlarda ularning maqbul qarorlar qabul qilishlariga to'sqinlik qiladi. Shuninguchun ular tez-tez jinoyatchilik mazmuniga ega bo'lgan harakatlarning ta'siriga tushib qoladi. O'smirda asta-sekin ijtimoiy muhit talab va me'yorlariga nisbatan deformatsiyalashuvning kelib chiqishi yuz beradi. Oqibatda salbiy xulq-atvor o'smirning butun faoliyatini, ongini qamrab oladi. Natijada bunday vaziyatlarda o'smir o'zining yosh davri xususiyati va hayotiy tajribasizligi tufayli g'ayriqonuniy harakatlarga qo'l urishi mumkin.

Suitsidni davolash olimlar oldiga bir qator murakkab masalalarni qo'ymoqda. Hali o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan o'smirlar uchun muvaffaqiyatli terapiya usullarini ishlab chiqish dolzarbligicha qolmoqda. Suitsidning oldini olish bo'yicha bir qator psixologik, terapevtik dasturlar ishlab chiqilgan, ammo bunday dasturlar real voqelikda umumiy xavf omillari va o'smirlar orasida o'z joniga qasd qilish darajasini qanday qilib kamaytirishi mumkinligi noaniqligicha qolmoqda. Suitsidning oldini olish bo'yicha uslubiy tavsiyalar Bolalarda suitsidal xulq-atvor alomatlarini ko'rganda qanday choralar ko'rishi mumkin? Suitsidga moyil yoshlar odatda to'g'ridan-to'g'ri yordam izlashmaydi: shunga qaramay, ularning otionalari, muassasa ma'muriyati yoki tengdoshlari ogohlantiruvchi alomatlarni aniqlashi va o'smirni saqlab qolish uchun qandaydir choralarni ko'rishi mumkin.

Insonga quloq tutish orqali uning hayotini saqlab qolish mumkin! Agar siz o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan birorta odamni bilsangiz yoki "unda suitsidga moyillik bor" degan gumonda bo'lsangiz, u holda, hayotini saqlab qolishda unga yordam berishingiz mumkin, buning uchun shunchaki uning aytganlariga quloq tuting! O'zini o'ldirishga chog'langan odamlar ko'pincha "mening hech kimga keragim yo'q", "mening boshqa ilojim yo'q" va "men haqimda hech kim qayg'urmaydi" deb o'ylaydilar. Odamlarni tinglash orqali ular bilan sodir



bo'layotgan hodisalarga va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarga befarq emasligimizni namoyon etamiz. Ota-onalar muassasa ma'muriyati yoki ijtimoiy markazlarga iloji boricha tezroq yordam so'rab, murojaat qilishlari kerak. Shuningdek, ta'lim muassasasi ma'muriyati va psixologi bunday o'quvchilarni doimiy ravishda kuzatib borishi hamda parasuitsidal holatdan to'la chiqib ketguncha ular bilan birga bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Tarbiya - yuksak ma'naviyat beshigi
ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 |
ISSUE 4 | 2020
2. Umarov B.M. O'zbekistonda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining
ijtimoiy-psixologik muammolari. Monografiya. – Toshkent, “Fan” nashriyoti
– 2008, 314 bet.
3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya.–Toshkent: “O'zbekiston faylasuflari
milliy jamiyati”, 2010. – 544b
4. N. Tayloqov, M. Xoliqova, Sh. Tayloqova Voyaga yetmaganlar o'rtasida
suitsid holatlarning oldini olish – Toshkent : «Kamalak» nashriyoti Ta'lim
muassasalari pedagog va psixologlari uchun metodik qo'llanma, 2017.
5. . Maxkamov U.I, Ismoilova D.M Allomalar merosi – milliy tarbiya asosi
“Xalq ta'limi” O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-
metodik jurnali ISSN 2181-7839 1-son, 2021 yil yanvar-fevral.
6. . Ismoilova D.M Zamonaviy didaktik yondashuvlar asosida umumiy o'rta
ta'lim maktablari ta'lim mazmunini prognostika qilish “Xalq ta'limi”
O'zbekiston Respublikasi